3. Amaliy ishni yakunlash. Amaliy mashg`ulot mavzusi bo'yicha yakun yasaydi: • Amaliy ish yuzasidan savollarga javob beradi; • Guruhlar ish natijasini tahlil qiladi; • Guruhlarning faolligini baholaydi; • Mustaqil ish yuzasidan maslahatlar beradi.	Savollar beradilar. Tinglaydilar.

1-ilova

Taqdimotni baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Guruhlar	*Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari*			
	Ma`lumotni aniq va to'liq etkazilishi	*Taqdimotni rasmiylashtirilishi*	*Misollar bilan tushuntirilishi*	*Jami*
	1,0	*0,5*	*0,5*	*2*
1				
2				
3				

Iroda

1-topshiriq. Quyida keltirilgan tushunchalarni shunday mantiqiy ketma-ketlikda joylashtiringki, avvalgi tushuncha keyingilari uchun umumiyroq bo'lsin. A) mardlik, ong, iroda, aks ettiri, jasurlik psixika. B) rejalashtirish, motivatsiya, refleksiya, xatti-harakatlar realizatsiyasi, maqsadga intiluvchanlik.

2-topshiriq. Quyidagi ta`kidlarda tushirib qoldirilgan so'zlarni toping. A) Iroda – bu ichki va tashqi qiyinchiliklarni engish bilan bog`liq shaxsning o'z xulq-atvori va faoliyatini boshqarish....B) ...ning ta`sirida aqlli echimlar...da namoyon bo'ladi.V) Iroda – bu shaxsni ... turli mexonlarida ... prtsess va holatlarini ... o'z hoxishiga ko'ra boshqarish ... dir. G) ... ikkita o'zaro bog`liq funktsiyalarni o'zida mujassamlashtiradi va bajaradi, ular ... (hoxlamayman, lekin qilish shart) va ... (hoxlayman, lekin mumkin emas). D) Irodaviy xulq-atvor borasidagi tadqiqotlar ikki yo'nalishda kechgan - ... tadqiqotlar va ... tadqiqotlar.

3-topshiriq. Quyida keltirilgan ta`kidlarni sharhlang. Sizningcha ularning qay biri to'g`ri va qay biri noto'g`ri? a)Xulq-atvorda irodaning namoyon bo'lishini yagona mezoni – bu irodaviy sifatlardir.b)Irodaviy xulq-atvorning asosiy belgisi qo'zg`atuvchilardagi kamchiliklarni va ularni to'ldirilishi hisoblanadi.v)Ichki fikrni singdirish ta`siri asosida qabul qilingan xatti-harakatlar irodaviy xarakatlar deb nomlanadi. g) Aristotel birinchilardan bo'lib inson bajarishi kerak bo'lgan xatti-harakatlarni majburiyat deb baholagan. d) Irodaviy xarakatlar o'z-o'zini stimullashtirishdan uni amalga oshirish uchun qaror qabul qilishga o'tish bilan belgilanadi.

5-topshiriq. Quyida keltirilgan tushunchalardan irodaviy xulq-atvorga tegishlilarini aniqlan va ta`rifini keltiring: motiv, o'zini-o'zi boshqarish,o'z-o'ziga baho berish,istak, refleksiya, ishonchlilik, intilish, maqsad, emotsiya, tafakkur, ishonch, rejalashtirish, kuch, bog`liqlik darajasi, xarakat, refleks, nizo, ong, maqsadga intilish, idrok, diqqat, qadriyat, ustanovka, tanlov erkinligi,energiya, ehtiyoj, xavf, avantyurizm, impulsivlik, intizomlilik, ma`suliyatlilik, volyuntarizm.

18-MASHG`ULOT	"Temperament" mavzusi bo'yicha labaratoriya mashg`uloti

1.1. Labaratoriya mashg`ulotining ta`lim texnologiyasi

O'quv soati: 2 soat	*Tinglovchilar soni:30* ta
O'quv mashg`uloti shakli	Bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish bo'yicha labaratoriya ishi.
Labaratoriya mashg`ulotining tuzilishi:	1. Mavzu mazmuniga kirish: - ta`limni tashkillashtirish shakllari, mohiyati va mazuni. - guruhlarda hamkorlikda ishlashni tashkillashtirish texnologiyasi. 2. Hamkorlikda o'zaro o'qish texnikalarini guruhlarda o'zaro o'rganish: 3. Natijalar taqdimoti, muhokama va baholash.
O'quv mashg`ulotining maqsadi: tinglovchilarda o'quv ishini tashkil etishni interfaol shakllaridan bo'yicha bilim va ko'nikmalarni kengaytirish va chuqurlashtirish.	
Pedagogik vazifalar: • Temperament mavzusining mohiyati va mazmuni to'g`risida tushunchalar berish; • guruhlarda hamkorlikda ishlashni tashkillashtirish texnologiyasini tushuntirish; • hamkorlikda o'zaro o'qish texnikalarini guruhlarda o'zaro o'rganishga o'rgatish; • natijalar taqdimoti, muhokama va baholashga o'rgatish.	*O'quv faoliyatining natijalari:* *tinglovchilar biladilar:* • Temperament mavzusining mohiyati va mazmuni to'g`risida tushunchalarni; • guruhlarda hamkorlikda ishlashni tashkillashtirish texnologiyasini; • hamkorlikda o'zaro o'qish texnikalarini guruhlarda o'zaro o'rganishni; • natijalar taqdimoti, muhokama va baholashni.
Ta`lim usullari	Kichik ma`ruza, tezkor so'rov, namoyish etish, suhbat, amaliy ish, taqdimot
Ta`lim vositalari	Tayanch matn, o'quv qo'llanmalar, ekspert topshiriqlar, slaydlar, flipchart, markerlar, skotch
O'qitish shakllari	Ommaviy, guruhli.
O'qitish shart-sharoiti	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Savol-javob

1.2. "Temperament" bo'yicha labaratoriya mashg`ulotning ta`lim texnologiyasi

I. Tayyorgarlik bosqich

Faoliyat mazmuni	
O'qituvchi	*tinglovchi*
Mavzuni aniqlaydi, maqsadni belgilaydi va o'quv natijalarini rejalashtiradi. Mavzu bo'yicha ko'rgazmali materiallar tayyorlaydi. Ekspert varaqlarini ishlab chiqadi. Guruhlar uchun yozma yo'riqnomalarni tayyorlaydi.	Mashg`ulotga tayyorlanadilar

II. Amalga oshiruvchi bosqich: amaliy ish

Faoliyat mazmuni	
O'qituvchi	*tinglovchi*
1. Amaliy ishga kirish. 1.1. Mavzuning nomi, maksadi va kutilajak o'quv natijalarini e`lon qiladi.	

1.2. O'quv mashgulotining tuzilishi va o'tkazilish tartibini tushuntirib beradi. 1.3. Tinglovchilarni kichik guruhlardagi faoliyatini baxolash mezonlarini e`lon qiladi (1-ilova). 1.4. Tezkor so'rov texnikasini qo'llab, tinglovchilar bilimlarini faollashtiradi: • Temperament tushunchasining mazmuni, asab tizimi, temperament tiplari, temperament va shaxsning faoliyat uslubiga doir nazariy ma`lumotlarni tahlil qiling? Insonda temperament tiplarini namoyon bo'lishi haqida nimalarni bilasiz? 1.5. Javoblarni umumlashtiradi va asosiy mashg`ulot bosqichiga o'tilishin ma`lum qiladi.	Tinglaydilar. Savollarga javob beradilar
2. Asosiy qism. 2.1. Tinglovchilarni uchta kichik guruhlarga bo'ladi va har bir guruhga topshiriqlarni (ekspert varaklarini) tarqatadi (2-ilova). 2.2. Guruhlarda ishlash qoidasini yana bir bora eslatadi. 2.3.Guruhlar faoliyatini tashkil qiladi, kuzatadi, maslahatlar beradi, yo'naltiradi. 2.4. Taqdimot boshlanishini e`lon qiladi. Har bir guruhdan bittadan a`zo chiqib, o'z ishlarini taqdim qilishlarini aytadi. Guruh a`zolariga diqqat bilan eshitishlarini va nazorat savollarini berishlarini aytadi. 2.5. Javoblarni to'ldiradi va qisqacha xulosalar qiladi. 2.6. Guruhlar bajargan ishlarini baholaydi.	Xar bir guruh o'z ekspert varaqlari bo'yicha faoliyatni boshlaydi. Har bir guruhdan bittadan a`zo chiqib o'z ishlarini taqdim qiladilar

III. Yakuniy bosqich

Faoliyat mazmuni	
O'qituvchi	*tinglovchining*
3. Amaliy ishni yakunlash. Amaliy mashg`ulot mavzusi bo'yicha yakun yasaydi: • Amaliy ish yuzasidan savollarga javob beradi; • Guruhlar ish natijasini tahlil qiladi; • Guruhlarning faolligini baholaydi; • Mustaqil ish yuzasidan maslahatlar beradi.	Savollar beradilar. Tinglaydilar.

1-ilova

Taqdimotni baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Guruhlar	*Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari*			
	Ma`lumotni aniq va to'liq etkazilishi	*Taqdimotni rasmiylashtirilishi*	*Misollar bilan tushuntirilishi*	*Jami*
	1,0	*0,5*	*0,5*	*2*
1				
2				
3				

Temperament

1-topshiriq. Quyidagi so'zlardan temperamentga xos so'zlarni aniqlang: mehnatsevar, qat`iyatlilik, ong, muvozanatlashmagan, musiaqaviy, ziyraklik, reaktivlik, ekstraversiya, agressivlik, jizzaki, emotsional, maydakash, talabchanlik, printsipial, diqqatning tez ko'chuvchanligi, ko'rish o'tkirligi, dangasalik, aqliy qobiliyatning yuqoriligi, sustkashlik, geniallik, emotsional reaktsiya kuchi, mimikaning boyligi, hislarning chuqurligi.

2-topshiriq. Tushirib qoldirilgan so'zlarni qo'ying. 1.Temperament deganda.....xarakteristikasi tushuniladi. 2.Temperament haqidagi fiziologik qarashlar.....bilan boshlanadi, shu asosda temperamentning 4 tipi ajratiladi.....3.....va ....ni tadqiq qilish natijasida nerv tizimining 3 xususiyatiga yana 2 xususiyat kiritildi..... va .....4. nerv tizimlarining xususiyati miya faoliyati va xususiyatlarini .....ta`minlashi bilan xarakterlaydi.

3-topshiriq. Shaxs xususiyatlari shartli ravishda 3 guruhga temperament, xarakter, qobiliyat xususiyatlari. Quyidagi tushunchalarni 3 guruhga klassifikatsiyalang. Jizzakilik, nozik, adolatli, jasur, aqlli, mehnatsevar, to'g`riso'z, nazorkatli, tarbiyali, qiziqqon, zukko, ishbilarmon, zo'r, maydakash, topqir, itoatkor, notiq, tannoz, tentak, xotirjam, topqir, engil, layoqatsiz, dangasa, ziyrak, mehribon, o'tkir, o'ziga ishongan, zaif, qo'zg`aluvchan, egoist, energetik, tashkilotchi, sustkash, ishonchli, sadoqatli.

4-topshiriq. Quyidagi ta`kidlarni sharhlang. Qay biri to'g`ri yoki noto'g`ri sizningcha? 1) temperament qon tarkibi va garmonlarga bog`liq. 2) temperament nerv tizimi xususiyatiga bog`liq. 3) temperamentdagi kamchiliklar irodaviy kuch berish, tayyorgarlik, qiziquvchanlik, bilan kompensatsiyalashadi. 4) temperament faoliyat yoki faoliyatdan tashqarida namoyon bo'ladi. 5) temperament organizmning umumiy energiyasi bilan xarakterlanadi. 6) temperament shaxs konstitutsiyasi bilan belgilanadi.

5-topshiriq. Psixolog-pedagogik tavsifnomalarda berilganiga ko'ra o'quvchilar temperamenti tipini aniqlash.

1. Sharif III sinfda o'qiydi. Sustkash. Shoshmasdan qadam tashlaydi, lapanglab yuradi, sekin ammo izchil ravishda batafsil gapiradi. Darslarda ancha beparvo o'tiradi, o'zi qo'l ko'tarmaydi, lekin o'qituvchining savoliga odatda to'g`ri javob beradi. O'qituvchi undan nima uchun qo'l ko'tarmaganligini so'rasa har doim bir xil javob beradi: «Shunday o'zim...». Uni kuldirish yoki jahlini chiqarish qiyin. O'zi odatda do'stlarini xafa qilmaydi, o'zgalar janjaliga beparvo qaraydi. Beozor. Do'stlar uchun biron narsa qilishga erinadi. Gapga kamdan-kam aralashadi, ko'proq indamaydi. Yangi materialni tez tushunib olmaydi, uni bir necha bor takrorlash zarur, ammo topshiriqni to'g`ri va ozoda bajaradi. Tartibni yoqtiradi. Bizga o'tgan yili keldi, bolalar bilan sekin til topishdi va do'stlashdi.

2. Anvar III sinf o'quvchisi. O'ta qiziquvchan. Ko'p hollarda u o'ziga to'g`ri kelmaydigan og`ir ishlarni bajaradi. Haddan tashqari harakatchan. Qo'llari tinch turmaydi. Tez-tez boshini har tomonga burib turadi. Tez achchig`lanadi. Materialni tez va to'g`ri o'zlashtirib oladi, lekin shoshganidan chalkash javob beradi. Hamma vaqt unga: «Darhol javob berma, o'yla, shoshilma» deb eslatib turish kerak. To'satdan kulgisi — g`azabga va aksincha g`azabi — kulgiga aylanadi. Harbiy o'yinlarni juda yoqtiradi. Juda tashabbuskor. O'qituvchiga savolni yog`dirib yuboradi. Achchiqlansa, o'zini tuta olmaydi. Yaxshi baho olishni juda yoqtiradi. «Ajoyib, jozibali», «besh»,— deydi.

3. Sarvar II sinf o'quvchisi, juda ta`sirchan. Zarracha ko'ngilsizlik uni muvozanatdan chiqarib yuboradi, arzimagan narsaga yig`layveradi. Sarvar bir kuni sumkasida turgan kitobini tezroq topilmaganiga ham chidolmay yig`lab yubordi. Juda ham serzarda, gan ko'tarmaydigan. Xafalikni uzoq yodda saqlaydi va uni azob-uqubat bilan o'tkazadi. Xayolparast. Dam-badam u o'r-toqlari bilan o'ynash o'rniga deraza oldida o'ylanib, xayolga berilib o'tiradi. Barcha qoidalarga itoatkorlik bilan bo'ysunadi. har zamonda o'z kuchiga ishonchsizlik sezadi. Ish davomida qiyinchiliklarga duchor bo'lsa, ruhi tushib ketadi, o'zini yo'qotib qo'yadi, ishni oxirigacha etkazmaydi. Ammo «ishning bajarilishini qattiq turib talab qilinsa, uni ko'pincha boshqalardan yomon ba-jarmaydi.

4. Lobar II sinfda o'qiydi. Bu qiz juda serharakat, dars paytida bir dam tinch o'tirmaydi, doimo gavda holatini almashtirib turadi, biron narsani qo'lida aylantirib, sherigi bilan gaplashib o'tiradi. Barcha yangiliklarni tezda bilib olishga qiziqadi, lekin xafsalasi tez soviydi. quvnoq va tetik, unda yaxshi kayfiyat doimo ustun. «Ishlar qalay?» — degan savolga odatda u kulimsirab «Juda yaxshi» deb javob beradi, garchi olgan baholari ba`zan uncha yaxshi bo'lmasa ham «besh»-lar haqida uydagilarga xursandlik bilan xabar beradi. «Ikki»larini yashirmaydi, ammo doim: «Bu menda shunday... tasodifan...»,— deb qo'yadi. Ba`zan ranjib qoladi, hattoki yig`laydi,

ammo bu uzoq cho'zilmaydi. Mimikasi jonli. Chaqqon va jonsarakligiga qaramasdan, uni tartib-intizomga tez, oson undash mumkin. Qiziqarli darslarda unda katta g`ayrat va ishchan qobiliyat paydo bo'ladi. Dugonalari bilan oson til topishadi, yangi talablarga tez ko'nikadi. Nihoyatda so'zamol.

5. Farxod IV sinf o'quvchisi. Quvnoq, hushchaqchaq, iltifotli, kek saqlamaydigan bola. Bir kuni Farxod kamalak yigilishida yomon xatti-harakatlari uchun do'stini tanqid qildi. Yig`ilishdan keyin ular janjallashib qoldilar. Farxod hattoki yig`lab yubordi. «Men senga yaxshilik tiladim, sen men bilan urishding», — dedi do'stiga. Darslar tugaguncha u g`amgin bo'lib yurdi, keyin do'stlari bilan birga uyga qaytdi. Farxodning kamchiliklari ham bor: topshiriqlarni dam-badam hovliqib, o'ylamasdan bajaradi va boshlagan ishini oxiriga etkazmaydi. 8 mart bayramiga Farxod she`r yodlashi kerak edi. U bajonu dil ishga kirishdi. Ammo 2—3 kundan keyin unda «uzrli vaj»lar paydo bo'lib qoldi. SHe`r qiziqarli emas, uni yodlashga vaqti yo'q. Qatnashmaslikka ham tayyor edi.

6. Lola III sinf o'quvchisi, kamharakat, bosiq, jiddiy qiz. Biron topshiriqni bajarishdan oldin, chuqur o'ylab chiqadi. Ishni odatda sekin, lekin puxta bajaradi. Bu xususiyat uning nazorat ishlarida yaqqol seziladi. Lola daftarini deyarli oxirgi bo'lib topshiradi, ammo doim u hammasini to'g`ri ishlagan bo'ladi. Darsda javob berayotib, aniq, dona-dona qilib, lekin bir ohangda gapiradi.

7. Shokir III sinfda o'qiydi. Hamisha osoyishta, yolg`iz va qovog`i soliq. Xafa bo'lgan bo'lsa, uzoq zarda qilib yuradi. Agar do'sti bilan janjallashib qolsa, kun bo'yi u bilan gaplashmay yuradi. Darsda ko'proq yomon javob bergani uchun, u o'z kuchiga ishonmaydi. Boshqa bolalarga nisbatan u darsda ko'proq charchaydi. Agar rag`batlantirib yoki yordam berib turilsa, u topshiriqlarni yaxshiroq va dadilroq bajaradi.

8. Komil III sinf o'quvchisi. Jiddiy, kamgap bola. Maktabda uni hech kim hech qachon kuvnoq bo'lib yurganini ko'rgan emas. U bolalar bilan kamdan-kam o'ynaydi, ko'proq ularning o'yinini kuzatadi yoki biron narsa o'qib o'tiradi. Bu bola serzarda, jizzaki va ginachi. Agar Komilga keskin tanbeh berilsa yoki javob berayotganida xatosini tuzatsa, u jimib qoladi. So'ng hech javob bermaydi. YOmon baho olsa, g`amgin bo'lib qoladi. Sir boy bermaydi, fikrlari bilan o'rtoqlashmaydi. Jamoat topshiriqlaridan voz kechadi, eplayolmayman deydi.

9. Farrux III sinfda o'qiydi. Xushchaqchaq, g`ayratli bola. Uning g`ayrati bitmas-tuganmasdek tuyuladi. U topshiriqlarni osongina uddasidan chiqadi. Harakatlari tez va keskin. Farruxto'g`risida: «u narsalarni olmaydi, balki ushlaydi, narsalarni qo'ymaydi, balki tashlaydi», deyishadi. Darslarda va ijtimoiy hayotda doimo faol. Materialni oson o'zlashtiradi. Masalalarni tez va to'g`ri echadi. Tirishqoq. Hamma narsada birinchi bo'lishni yoqtiradi. Uning nutqi tez va qizg`in. Harakatli o'yinlarning tashabbuskori, qo'mondonlik qilishni sevadi. Hamisha o'ziga ishonadi. Do'stlari bilan bahslashganda o'z fikrida qattiq to'radi. Dam-badam qo'zg`alib, achchig`lanib ketadi va bolalar bilan ko'p vaqt kelisholmay qoladi.

6-topshiriq.. O'qituvchilar F.Yu. va V.F. uslublari qaysi temperament tiplari uchun xarakterli ekanligini aniqlang. Ularda qaysi uslub xususiyatlari namoyon bo'lgan? a) 6-7 sinflarning rus tili o'qituvchisi F.Yu. tashqi taassurotlarga sekin beriladi, savollarga darhol javob qaytarmaydi. YUz qiyofasi –topshiriq berayaptimi yoki tanbeh berayaptimi, jiddiy savolni yoki quvnoq voqeani eshityaptimi, bundan qat`iy nazar bir xil. Kam hollarda kuladi, ko'pincha yuzida nim tabassum. Nutqi bir xil tempda, shoshilmasdan gapiradi. Harakatlari sekin. Uning uchun har qanday sharoitda ham bosiqlik va xotirjamlik xos. Uning darslari juda ham zerikarli o'tadigandek tuyuladi, lekin bunday emas ekan. Masalan F.Yu. grammatik tahlil uchun emotsional boy, lirik ko'tarinki, ba`zida yumor (hazil)ga to'la gaplarni va matnlarni sinchkovlik bilan tanlaydi. Natijada dars barcha o'quvchilarning faol ishtiroki bilan o'tadi, ularning ko`zlari yonadi, qo'llari yuqoriroq ko'tariladi, yuzlarida tabassum o'ynaydi, javob berishga xohishlari baland. B) 6-7 sinflarning rus tili o'qituvchisi V.F. bir holatdan ikkinchi holatga oson o'ta oladi. Tanaffus vaqtida o'qituvchilar xonasida uning atrofida xursandchilik va jonlanish bo'ladi. V.F. qandaydir kulgili voqeani aytib berayotgan edi, lekin qo'ng`iroq chalingach o'qituvchining yuz qiyofasi jiddiylashdi. Sinfda u har doim harakatda, tez va shiddat bilan yuradi. Hech qachon

o'quvchilarning tushunmasliklaridan jahli chiqmaydi, o'zini tutadi, bosiq va sabrli. Uning darslarda qo'llaydigan rus tili bo'yicha materiallarni mustahkamlashning eng yaxshi ko'rgan usullaridan biri musobaqa tipidagi qisqa muddatli dinamik o'yindir. O'yin 5 minut davom etadi va yuqori tempda o'tadi. U o'qituvchidan katta operativlikni, epchillikni talab qiladi. SHunday qilib, ikkala o'qituvchi ham pedagogik topshiriqlarni muvaffaqiyatli, lekin turlicha hal qilishadi.

19-MASHG`ULOT	"Xarakter" mavzusi bo'yicha labaratoriya mashg`uloti

1.1. Labaratoriya mashg`ulotining ta`lim texnologiyasi

O'quv soati: 2 soat	*Tinglovchilar soni:30* ta
O'quv mashg`uloti shakli	Bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish bo'yicha labaratoriya ishi.
Labaratoriya mashg`ulotining tuzilishi:	1. Mavzu mazmuniga kirish: - ta`limni tashkillashtirish shakllari, mohiyati va mazuni. - guruhlarda hamkorlikda ishlashni tashkillashtirish texnologiyasi. 2. Hamkorlikda o'zaro o'qish texnikalarini guruhlarda o'zaro o'rganish: 3. Natijalar taqdimoti, muhokama va baholash.
O'quv mashg`ulotining maqsadi: tinglovchilarda o'quv ishini tashkil etishni interfaol shakllaridan bo'yicha bilim va ko'nikmalarni kengaytirish va chuqurlashtirish.	
Pedagogik vazifalar: • Xarakter mavzusining mohiyati va mazmuni to'g`risida tushunchalar berish; • guruhlarda hamkorlikda ishlashni tashkillashtirish texnologiyasini tushuntirish; • hamkorlikda o'zaro o'qish texnikalarini guruhlarda o'zaro o'rganishga o'rgatish; • natijalar taqdimoti, muhokama va baholashga o'rgatish.	*O'quv faoliyatining natijalari:* *tinglovchilar biladilar:* • Xarakter mavzusining mohiyati va mazmuni to'g`risida tushunchalarni; • guruhlarda hamkorlikda ishlashni tashkillashtirish texnologiyasini; • hamkorlikda o'zaro o'qish texnikalarini guruhlarda o'zaro o'rganishni; • natijalar taqdimoti, muhokama va baholashni.
Ta`lim usullari	Kichik ma`ruza, tezkor so'rov, namoyish etish, suhbat, amaliy ish, taqdimot
Ta`lim vositalari	Tayanch matn, o'quv qo'llanmalar, ekspert topshiriqlar, slaydlar, flipchart, markerlar, skotch
O'qitish shakllari	Ommaviy, guruhli.
O'qitish shart-sharoiti	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Savol-javob

1.2. "Xarakter" bo'yicha labaratoriya mashg`ulotning ta`lim texnologiyasi

I. Tayyorgarlik bosqich

Faoliyat mazmuni	
O'qituvchi	*tinglovchi*
Mavzuni aniqlaydi, maqsadni belgilaydi va o'quv natijalarini rejalashtiradi. Mavzu bo'yicha ko'rgazmali materiallar tayyorlaydi. Ekspert varaqlarini ishlab chiqadi. Guruhlar uchun yozma yo'riqnomalarni tayyorlaydi.	Mashg`ulotga tayyorlanadilar

II. Amalga oshiruvchi bosqich: amaliy ish

Faoliyat mazmuni	
O'qituvchi	*tinglovchi*
1. Amaliy ishga kirish. 1.1. Mavzuning nomi, maksadi va kutilajak o'quv natijalarini e`lon qiladi. 1.2. O'quv mashgulotining tuzilishi va o'tkazilish tartibini tushuntirib beradi. 1.3. Tinglovchilarni kichik guruhlardagi faoliyatini baxolash mezonlarini e`lon qiladi (1-ilova). 1.4. Tezkor so'rov texnikasini qo'llab, tinglovchilar bilimlarini faollashtiradi: • Xarakter tushunchasining mazmuni, xarakter tuzilishi, tiplogiyasi, shaxsning xarakter xususiyati va uning shaxsda shakllanishiga doir nazariy ma`lumotlarni tahlil qiling? Shaxsda xarakter xususiyatlarini namoyon bo'lishi haqida nimalarni bilasiz? 1.5. Javoblarni umumlashtiradi va asosiy mashg`ulot bosqichiga o'tilishin ma`lum qiladi.	Tinglaydilar. Savollarga javob beradilar
2. Asosiy qism. 2.1. Tinglovchilarni uchta kichik guruhlarga bo'ladi va har bir guruhga topshiriqlarni (ekspert varaklarini) tarqatadi (2-ilova). 2.2. Guruhlarda ishlash qoidasini yana bir bora eslatadi. 2.3.Guruhlar faoliyatini tashkil qiladi, kuzatadi, maslahatlar beradi, yo'naltiradi. 2.4. Taqdimot boshlanishini e`lon qiladi. Har bir guruhdan bittadan a`zo chiqib, o'z ishlarini taqdim qilishlarini aytadi. Guruh a`zolariga diqqat bilan eshitishlarini va nazorat savollarini berishlarini aytadi. 2.5. Javoblarni to'ldiradi va qisqacha xulosalar qiladi. 2.6. Guruhlar bajargan ishlarini baholaydi.	Xar bir guruh o'z ekspert varaqlari bo'yicha faoliyatni boshlaydi. Har bir guruhdan bittadan a`zo chiqib o'z ishlarini taqdim qiladilar

III. Yakuniy bosqich

Faoliyat mazmuni	
O'qituvchi	*tinglovchining*
3. Amaliy ishni yakunlash. Amaliy mashg`ulot mavzusi bo'yicha yakun yasaydi: • Amaliy ish yuzasidan savollarga javob beradi; • Guruhlar ish natijasini tahlil qiladi; • Guruhlarning faolligini baholaydi; • Mustaqil ish yuzasidan maslahatlar beradi.	Savollar beradilar. Tinglaydilar.

1-ilova

Taqdimotni baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Guruhlar	*Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari*			
	Ma`lumotni aniq va to'liq etkazilishi	*Taqdimotni rasmiylashtirilishi*	*Misollar bilan tushuntirilishi*	*Jami*
	1,0	*0,5*	*0,5*	*2*

1				
2				
3				

Xarakter

1-topshiriq. Quyidagi keltirilgan so'zlarda xarakterni tasniflovchilarini aniqlang: ishonmaslik, ta`sirchan, muloqotchan, emotsional reaktsiyalarning kuchi, tez adaptatsiya, tafakkur tezligi, mehribon, mehnatsevar xususiyat, tobe agressiya, jizzaki, optimist, qat`iyatsiz, keskin, do'stparvar, iroda, talabchan, tashkilotchi, qat`iyatli, moslashuvchan, energiyali, kuzatuvchan, xushchaqchaq, ziyrak, uquvli, betgachopar, o'ziga ishongan, ehtiyotkor, xavotirli, ijodkor.

2-topshiriq. Quyida keltirigan variantlardan to'g`risini toping. 1.E.Krechmer xarakterga quyidagicha izoh bergan. A) endokrin omil b) ijtimoiy omil, v) irsiy omil, g) somatik holat d) barcha javoblar to'g`ri e) barcha javoblar noto'g`ri. 3. Z.Freydning fikricha, xarakterning energetik manbasiga.....kiradi. a)dinamik tendentsiya b) his etish v) anglangan ehtiyojlar g) jinsiy tendentsiya d) barcha javoblar to'g`ri e) barcha javoblar noto'g`ri. 3. Xarakterning xususiyatlari determinantlarini .....dan izlash lozim. A) genotip foiz xususiyatlaridan b) ijtimoiy muhit ta`sirida v) shaxsning ichki qo'zg`atuvchilari g) genotipik va ijtimoiy ta`sirlarda d) barcha javoblar to'g`ri e) barcha javoblar noto'g`ri. 4. E.Fromm xarakterni ....jarayonidagi shaxs energiyasi manbati deb biladi. A) predmetlarni o'zlashtirish va talab qilish b) o'zgalar bilan munosabat o'rnatish v) o'zi bilan munosabat o'rnatish. g) barcha javoblar to'g`ri d) barcha javoblar noto'g`ri. 5. psixoasteniklarga ....xarakter xos. A) qat`iyatsizlik, b)qattiqqo'llik, v)tashkilotchilik, g) pishiqlik, d) barcha javoblar to'g`ri e) barcha javoblar noto'g`ri.

3-topshiriq. Quyida keltirilgan ta`kidlarni sharhlang. Sizningcha ularning qaysi biri to'g`ri. 1.Xarakter-bu irsiy kuchuvchi va hayot faoliyati jarayonida shakllanadigan psixologik xususiyatlari jamlamasidir. 2.Ijtimoiy tipik va individual o'ziga xos xususiyatlari xarakter individual o'ziga xos xususiyatlari xarakter jihatlaridir. 3.Xarakter shaxs munosabatlari va u amalga oshadigan harakat usullarida namoyon bo'ladi. 4) Xarakter –bu tipik sharoitlardagi tipik xulq-atvor dasturidir.

4-topshiriq. Quyidagi tushunchalar orasidagi o'zaro munosabatni izohlang. 1.a) xaraker b) temperament 2.a) shaxs b) xarakter 3.a)iroda b)xarakter 4. a)ktsentuatsiya b) psixopatiya 5. a) psixika b) xarakter 6.epileptiod xarakter aktsentuatsiyasi-epilepsiya. 7a) tarbiya b) xarakter

5-topshiriq. Ushbu parchadan so'zlovchi bolaga xos xarakter xislatlarini topib yozing. «Tanishib qo'yaylik: otim Hoshim, erkalatib chaqirmoqchi bo'lsangiz Hoshimjon deb ataysiz. Familiyam — Ro'ziev, Ro'zivoy traktorchining o'g`limman. Ruxsat bersangiz oilamiz haqida ham ikki-uch og`iz so'zlab o'tsam: dadam ikki-uch yildan buyon cho'lda buldozer haydab er tekislaydi, oyimning aytishiga qaraganda o'sha tomonlarga ham paxta ekisharmish. Bir oyda, ba`zan ikki oyda bir kelib ketadi. Kelganida har birimizga alohida-alohida sovg`a-salomlar olib keladi. Sovg`aning eng yaxshisi, albatta, menga tegadi. Oyim bo'lsa uyimizdan uch yuz metr naridagi fermada sigir sog`adi. Bir o'ziga 24 govmish qaraydi. O'tgan yili sutni ko'p soqqani uchun medal ham olgan. O'sha medalni oyimdan yashirib men ham ikki marta taqdim. Bir marta taqib bozorga borib sabzi-piyoz olib keldim, ikkinchi marta taqib maktabga boruvdim, direktorimiz chaqirib olib rosa urishdi.

Katta singlim Oyshaxon to'rtinchi sinfda o'qiydi. Hovlini supurish, idish-tovoqlarni yuvish o'shaning bo'ynida. Oyim uni «Oppoqqinam, jonimning huzuri» deb erkalatgani-erkalatgan. Oyim uni bag`riga bosib so'ygan kuni men ham biqinidan sekin chimdib:

— Puchuqqinam,— deb qo'yaman.

Kichik singlimning oti Donoxon. Hozir birinchi sinfda o'qiyapti. Oyimning aytishiga qaraganda u katta bo'lsa, albatta doktor bo'larmish. Menimcha, undan doktor chiqmasa kerak. Nega desangiz ko'cha-ko'yda hamshiralarga ko'zi tushib qolsa, ukol qiladi deb tog`dan-toqqa qochadi. Tunov kuni maktab hovlisida oq xalat kiygan bufetchini ko'rib, doktor keldi deb derazadan tashlab qochibdi.

Rostini aytsam, o'zim ham unchalik yomon bola emasman. Aql-hushim joyida, odobim ham chakki emas, oltinchi sinfning intizomli o'quvchilaridanman. Bir xil, haligi sho'x bolalarga o'xshab kun bo'yi ko'cha changitib yurmayman. Yashirib nima qilaman, ko'cha changitib yurgandan ko'ra komandaga bo'linib olib, to'p tepgan yoki xoliroq joyga, masalan, oying harchand chaqirsa ham ovozi etmaydigan joyga borib olib chillak o'ynagan ming marta yaxshi».

6-topshiriq. Quyidagi parchani o'qing. Undagi ikki bola xarakteriga xos xislatlarni topib yozing. Ularni o'zaro taqqoslang,

— Aytchi, oromgohdan qanaqa o'yinlar o'ganib kelding?— deb so'radim Orifdan.

— Har xilidan o'rgandik. Xo'p desang, senga amerikancha fokus o'rgatib qo'yaman...

Rostini aytsam sayohatda yurganimda juda ko'p fokuslarni ko'rdim. Bir xillari shunaqangi qiyinki, aqlingni har qancha ishlatsang ham, bari bir, hech narsa tushunolmaysan. Lekin amerikancha fokusni birinchi marta eshitishim. Ehtimol juda qiziqdir, o'rganib olsam bir kun ish berib qolar deb o'yladim-da:

— O'shaningni menga ham o'rgatib qo'y,— deb iltimos qildim.

Orif to'satdan jiddiylashib, boshini sarak-sarak qildi:

— Yo'q senga o'rgatmayman.

— O'rgatasan.

— O'rgatmayman dedim, o'rgatmayman.

— Qani, o'rgatmay ko'r-chi.

— Bilaman, o'rgatsam darrov yig`lashga tushasan.

— Men-a?

— Ha, sen.

— Men yig`laymanmi?

— Demak, yig`lamaysan-a?

— Yo'q, yig`lamayman.

— Yo'q, bari bir o'rgatmayman.

Orif paysalga solgan sari amerikancha fokusga bo'lgan qiziqishim oshaverdi. YOlvordim, iltimos qildim, ishqilib ko'ndirmaguncha qo'ymadim-da.

— Bor bo'lmasa,— dedi Orif nihoyat yumshab,— o'y-laringdan qiyiq bilan bir quloch pishiq arqon olib chiq. Tezroq chiq, bo'lmasa ketib qolaman...

Ko'z yumib ochguncha arqon bilan qiyiqni olib chiqdim. Keyin Orif ko'rsatib, o'rgatib turdi. Qiyiq bilan ko'zimni mahkam bog`ladim. Orif chilvir bilan qo'llarimni orqamga qilib, chandib tashladi.

— Endi erga cho'kkala,— deb buyurdi u. CHo'kkaladim.

— O'tgan yili meni urgan eding-a, so'radi Orif.

— Keyin kechirim so'ragan edim-ku.

— Yo'q, o'rganing esingdami?

— Esimda. Qani fokusingni tezroq ko'rsat.

— Mana, mana, senga amerikancha fokus...

Orif yugurib kelib elkamga zarb bilan shunday tepdiki, peshonam borib erga urildi. O'rnimdan turay desam, turolmayman. Dodlay desam og`zimga qum to'lib qolgan, ovozim chiqmaydi. Bir mahal elkamga suyanib o'rnimdan turayotgan edim, nimadir, Orifning tepkisidan ko'ra qattiqroq bir narsa qornimga kelib urildi. Ketidan «bezori, boshni eding-ku», degan ovoz ham eshi-tilib qoldi... Keyin u yog`i juda tez ketdi: kimdir avval qo'limni, so'ngra ko'zlarimni echib tashladi. Motorli velosiped minib muyulishdan chiqib kelgan Odiljon aka bexosdan menga urilib, munkib ketibdi-da, borib miyasi bilan to'ppa-to'g`ri (mo'ljalni to'g`ri olganini qarangki) tutga urilibdi.

— Bezori, boshni eding-ku,— dedi yana menga qaramay. Bir nafasda hamma yoqni odam bosib ketdi. Shovqin solib, qo'shnimizning uyidan buvijonim ham chiqib keldi. Qayoqdandir oyim ham paydo bo'lib qoldi:

— Nima gan, nima qildilaring mening bolamni,— dedi oyim yig`lagudek bo'lib.

Bolangizga jin ham urgani yo'q,— dedi Orifning oyisi. SHundan keyin hammasi meni o'rtaga olib, bezoridan olib bezoriga solishdi. Oyim bilan dadam meni juda erkalatib yuborishgan emish, shu ketishda ketaversam mendan qip-qizil bezori chiqar emish. Gapni qarang-a, bezorining qizili-yu sarig'i ham bo'lar ekan. Men hamma ayb Orifda degan edim, baloga qoldim. Qig'ilikni qilib nega tag'in birovga to'nkaysan deb hatto meni gapirtirgani ham qo'yishmadi. Orif bo'lsa bir chekkada turib, tilini chiqarib, meni hadeb ajab bo'ldi degandek masxara qilardi.

7-topshiriq. Parchani o'qing. Mirzakarimboyning xarakteriga xos xislatlarni aniqlang. Mirzakarimboy Yo'lchi bilan turli narsalar haqida uzoq suhbatlashdi, lekin yigirma uch yoshli yigitning aqlida sira nuqson ko'rmadi. Uning arslonday ko'rkam gavdasi, keng peshonasi, chuqur samimiyat ifodasi bilan to'la yirik, xushyor ko'zlari, kir yaktagi ichidan qavarib turgan keng ko'kragi, baquvvat qo'llari, so'zlaridagi qishloqcha soddalik va to'g'rilik (bu xususiyatni kambag'al odamlarda katta fazilat deb topar edi boy) unga juda yoqdi. (Oybek, «Qutlug' qon» dan).

8-topshiriq. Parchani o'qing, buyuk tabiatshunos olim I. V. Michurin xarakteriga xos xislatlarni aniqlang, ularni tahlil qiling. Mening yosh do'stlarim, biz shunday zamonda yashamoqdamizki, bu zamonda odamning eng oliy maqsadi dunyoni tushuntirib berishdangina iborat emas, balki uni o'zgartirish va yaxshilashdan ham iboratdir... Men o'simlik navlarini yaxshilash ustida 60 yildan beri ishlab kelmokdaman. Odamlar meni juda ko'p ish qildi deydilar. Men shuni aytardimki, bu qilingan ishlar hali qilinishi mumkin va zarur bo'lgan ishlarga qaraganda unchalik ko'p emas. Kelgusi avlodga, jumladan, mening yosh do'stlarim, sizlarga ko'p ish qilishga to'g'ri keladi. (I. V. Michurindan.)

20-MASHG'ULOT	"Qobiliyat" mavzusi bo'yicha labaratoriya mashg'uloti

1.1. Labaratoriya mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi

O'quv soati: 2 soat	*Tinglovchilar soni:30* ta
O'quv mashg'uloti shakli	Bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish bo'yicha labaratoriya ishi.
Labaratoriya mashg'ulotining tuzilishi:	1. Mavzu mazmuniga kirish: - ta'limni tashkillashtirish shakllari, mohiyati va mazuni. - guruhlarda hamkorlikda ishlashni tashkillashtirish texnologiyasi. 2. Hamkorlikda o'zaro o'qish texnikalarini guruhlarda o'zaro o'rganish: 3. Natijalar taqdimoti, muhokama va baholash.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: tinglovchilarda o'quv ishini tashkil etishni interfaol shakllaridan bo'yicha bilim va ko'nikmalarni kengaytirish va chuqurlashtirish.	
Pedagogik vazifalar: • Qobiliyat mavzusining mohiyati va mazmuni to'g'risida tushunchalar berish; • guruhlarda hamkorlikda ishlashni tashkillashtirish texnologiyasini tushuntirish; • hamkorlikda o'zaro o'qish texnikalarini guruhlarda o'zaro o'rganishga o'rgatish; • natijalar taqdimoti, muhokama va baholashga o'rgatish.	*O'quv faoliyatining natijalari:* *tinglovchilar biladilar:* • Qobiliyat mavzusining mohiyati va mazmuni to'g'risida tushunchalarni; • guruhlarda hamkorlikda ishlashni tashkillashtirish texnologiyasini; • hamkorlikda o'zaro o'qish texnikalarini guruhlarda o'zaro o'rganishni; • natijalar taqdimoti, muhokama va baholashni.
Ta'lim usullari	Kichik ma'ruza, tezkor so'rov, namoyish etish, suhbat, amaliy ish, taqdimot
Ta'lim vositalari	Tayanch matn, o'quv qo'llanmalar, ekspert topshiriqlar, slaydlar, flipchart, markerlar, skotch
O'qitish shakllari	Ommaviy, guruhli.
O'qitish shart-sharoiti	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Savol-javob

1.2. "Qobiliyat" bo'yicha labaratoriya mashg`ulotning ta`lim texnologiyasi

I. Tayyorgarlik bosqich

Faoliyat mazmuni	
O'qituvchi	*tinglovchi*
Mavzuni aniqlaydi, maqsadni belgilaydi va o'quv natijalarini rejalashtiradi. Mavzu bo'yicha ko'rgazmali materiallar tayyorlaydi. Ekspert varaqlarini ishlab chiqadi. Guruhlar uchun yozma yo'riqnomalarni tayyorlaydi.	Mashg`ulotga tayyorlanadilar

II. Amalga oshiruvchi bosqich: amaliy ish

Faoliyat mazmuni	
O'qituvchi	*tinglovchi*
1. Amaliy ishga kirish. 1.1. Mavzuning nomi, maksadi va kutilajak o'quv natijalarini e`lon qiladi. 1.2. O'quv mashgulotining tuzilishi va o'tkazilish tartibini tushuntirib beradi. 1.3. Tinglovchilarni kichik guruhlardagi faoliyatini baxolash mezonlarini e`lon qiladi (1-ilova). 1.4. Tezkor so'rov texnikasini qo'llab, tinglovchilar bilimlarini faollashtiradi: • Qobiliyat tushunchasining mazmuni, qobiliyat tuzilishi, tarkibi, shasda qobiliyatning rivojlanishiga doir nazariy ma`lumotlarni tahlil qiling? Shaxs qobiliyatlari xususida nimalarni bilasiz? 1.5. Javoblarni umumlashtiradi va asosiy mashg`ulot bosqichiga o'tilishin ma`lum qiladi.	Tinglaydilar. Savollarga javob beradilar
2. Asosiy qism. 2.1. Tinglovchilarni uchta kichik guruhlarga bo'ladi va har bir guruhga topshiriqlarni (ekspert varaklarini) tarqatadi (2-ilova). 2.2. Guruhlarda ishlash qoidasini yana bir bora eslatadi. 2.3.Guruhlar faoliyatini tashkil qiladi, kuzatadi, maslahatlar beradi, yo'naltiradi. 2.4. Taqdimot boshlanishini e`lon qiladi. Har bir guruhdan bittadan a`zo chiqib, o'z ishlarini taqdim qilishlarini aytadi. Guruh a`zolariga diqqat bilan eshitishlarini va nazorat savollarini berishlarini aytadi. 2.5. Javoblarni to'ldiradi va qisqacha xulosalar qiladi. 2.6. Guruhlar bajargan ishlarini baholaydi.	Xar bir guruh o'z ekspert varaqlari bo'yicha faoliyatni boshlaydi. Har bir guruhdan bittadan a`zo chiqib o'z ishlarini taqdim qiladilar

III. Yakuniy bosqich

Faoliyat mazmuni	
O'qituvchi	*tinglovchining*
3. Amaliy ishni yakunlash. Amaliy mashg`ulot mavzusi bo'yicha yakun yasaydi: • Amaliy ish yuzasidan savollarga javob beradi;	Savollar beradilar. Tinglaydilar.

• Guruhlar ish natijasini tahlil qiladi; • Guruhlarning faolligini baholaydi; • Mustaqil ish yuzasidan maslahatlar beradi.	

1-ilova

Taqdimotni baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Guruhlar	*Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari*			
	Ma`lumotni aniq va to'liq etkazilishi	*Taqdimotni rasmiylashtirilishi*	*Misollar bilan tushuntirilishi*	*Jami*
	1,0	*0,5*	*0,5*	*2*
1				
2				
3				

Qobiliyat

1-topshiriq. Inson qobiliyati bilan bog`liq bo'lgan faoliyatlarni aniqlang. A. 1970 yil Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan tilshunoslarning xalqaro kongressida professor Karlo Talyavini minbarga ko'tarilib kongress qatnashchilarini 50 tilda birin-ketin tabrikladi. Professor Talyavini filologiya fanlari doktori, ellik ta fanlar akademiyasining a`zosi. U o'n ikki yoshligidayoq etti tilni bilar edi. Filologiya bo'yicha Bolonya universitetida ta`lim oldi, doktorlik diplomini olganida 15 ta tirik va o'lik tilni bilar edi. o'shanda u 22 yoshda edi. Doktor Talyavini 120 ta tilni biladi. U barcha Evropa tillari va dialektlarida bemalol gaplasha oladi. Universitetda 25 tilda lektsiya o'qiydi. Professor Talyavini avvalo tilning xarakterini, boshqacha qilib aytganda, ruhini tushunishga, uning talaffuzini, ohangini o'rganishga harakat qiladi. So'ngra so'z, ibora va gaplarni o'rganadi. Ularni bir-biriga qo'shib taqqoslaydi.

2-topshiriq. Quyidagi matnni sinchiklab o'qing, unda tasvirlangan voqealarning sababini tushuntirib bering. I. Nyuton, G.Gogol, J. Sholer maktabda o'qib yurgan paytlarida fahmi kalta va qobiliyatsiz o'quvchi deb nom chiqarganlar. K.Linney bo'lsa «befahm» va «bilim darajasi past» bo'lganligi sababli u haqda «o'qishga qobiliyatsiz» bola degan qarorga kelib litseydan chiqarib yuborilgan. Rassomchilik akademiyasiga kirmoqchi bo'lgan V. I. Surikovning chizgan rasmlariga qarab turib, inspektor: «Bunday rasmlaringiz uchun Sizni akademiya yaqiniga ham yo'latmaslik kerak»,— deydi. Taniqli frantsuz yozuvchisi O.Balzak ham ota-onalari hamda o'qituvchilari tomonidan qobiliyatsiz deb baholanib, fahmi kalta bolalar qatoriga qo'shib qo'yishgandi. Uni yaxshi o'qishga majbur qilish maqsadida ko'pincha kartserga qamab qo'yishardi, biroq bunday tadbir juda kam foyda berardi. Keyinchalik esa, kattalar «fahmi kalta» bolani o'qitishdan foyda chiqmasligiga ishonch hosil qilib, uni o'z holiga tashlab qo'yadilar. Hatto O.Balzakning o'z onasi ham agar u birorta aqlli gan aytgudek bo'lsa, beparvogina: «Onore, nima deb gapirayotganingni o'zing ham bilmasang kerak, albatta»,— deb pisanda qilar edi. Maktabda yomon o'qigan Nyuton mashinalarning tuzilishini -juda katta qiziqish bilan o'rganardi, «befarosat» Lippey bo'lsa, o'rmon yoki bog`larda botanika sohasidagi chuqur bilimlari bilan o'z tengdoshlarini hayratga solib qo'yardi.

3-topshiriq. Qobiliyatlarning kelib chiqishi to'g`risida aytilgan nazariyalardan (qobiliyatlarning rivojlanishi naslga bog`liq, qobiliyatning rivojlanishi faqat tarbiyaga bog`liq, qobiliyatlarning rivojlanishi naslga va tarbiyaga bog`liq, bir xil nasl belgisiga ega bo'lgan chog`da qobiliyatning rivojlanishi tarbiyaga bog`liq) qaysi biri quyida keltirilgan misollarda o'z aksini topgan?

4-topshiriq. Qaysi nazariya idealistik va qaysi biri materialistik bo'lib hisoblanadi? A. Angliyada har bir 11 yoshga etgan bolaning aqliy rivojlanish koeffitsienti sinab ko'riladi. Shundan keyin bir xil bolalarni yuqori bilim beradigan maktablarga, bir xillarini esa ishlab chiqarishga tayyorlovchi maktablarda o'qishga jo'natiladi. B.Yapon pedagogi S.Sudzuki skripkachi — muzikantlar tayyorlaydi. Uning maktabiga yoshlar tanlamay olinadi. Ximkidagi (Moskva) muzika maktabi o'qituvchisi M.P.Kravets ham xuddi shunday qiladi. B.Rus psixologi A.R.Luriya maktabgacha yoshdagi bir juft egizakning rivojlanishini kuzatadi. Ularning hap birini qurilish materiallari bilan o'ynashga turlicha o'rgatadi. Natijada egizaklardan birining bajargan

ishi murakkabroq va originalroq bo'lib chiqadi. G.Rus psixologi A.K.Leontev individual mashq natijasida muzika eshitish qobiliyati buzilgan kishilarda «ichdan kuylash»ni tikladi va «eshitishni yaratdi». D.Universitetning mamavzutika fakultetida mamavzutika bilan ijodiy shug'ullanayotgan talabalarning ko'pchiligi bir maktabda, bir pedagogda o'qiganligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ivanov P.I., Zufarova M. «Umumiy psixologiya» T., 2008 yil
2.Klimov E.A. «Obshaya psixologiya» M.: SPb 2001.
3.Klimov E.A."Psixologiya". Moskva-2000
4.Nemov R. S. «Psixologiya» T. 1.M. 1998.
5.Sapogova E.E. "Praktikum po obshey psixologiya" M., 2001.
6.Xaydarov F.I., Xalilova N.I. «Umumiy psixologiya» T.: TDPU 2010 yil
7.SHakirova G.M. "Obshya psixologiya" T.: TGPU 2000.

Bosishga ruxsat etildi 16.10.2013 yil, bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$

«Times Uz» garniturasi. Ofset usulida bosildi.

Shartli bosma tabog`i 4. nashr bosma tabog`i 4

Tiraji 57. buyurtma